

UCHUNCHI RENESSANS YOSHLARI TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY PARADIGMALAR TALQINLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14543935>

Xo‘janova Tamara Jo‘rayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Uchunchi Renessans yoshlari tushunchasi va uning falsafiy paradigmalar talqinlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Yoshlar nafaqat sotsiologik tadqiqot ob‘ekti, balki ijtimoiy o‘zgarishlarning faol ishtirokchisi sifatida ham, ularning hayot yo‘llarini modernizatsiya qilish yo‘llarini izlash zarurati sifatida qaraladi. Ushbu ijtimoiy guruhni qo‘llab-quvvatlash va mavjud dasturlarni ularning ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan yoshlar siyosatini o‘rganishni muhimligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, tarbiya, oila, ta‘lim, mahalla, Uchunchi Renessans.

Yoshlarni har tomonlama muhofaza etish, ularni to‘g‘ri yo‘ldan borib xalq va jamiyatning tirgagiga aylantirish mushkul ish albatta. Bu yo‘lda ta‘limning o‘rni nihoyatda katta. Har bir inson ongiga bir bo‘shliq bo‘lar ekan, ushbu bo‘shliqni qandaydir g‘oya va mafkura egallab olishi aniq. Axborot asrida buning ehtimoli ham juda yuqori. Bu mavzuda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o‘z asarlarida alohida to‘xtalib o‘tadi.

Yoshlar – yosh xususiyatlari, ijtimoiy holatining o‘ziga hosligi bilan ajralib turuvchi ijtimoiy-demografik guruh. Hozirg paytda 14-16 yoshdan 25-30 yoshgacha bo‘lgan kishilar yoshlarga mansub deb hisoblanadi. Yoshlarning manaviy dunyoqarashi shakillanayotgan, qaror topayotgan, asosiy ijtimoiy o‘rishini, intensiv ijtimoiylashuv va moslashuvni, ijtimoiy varuhiy-fiziologik balog‘at yoshni boshdan kechirayotgan ijtimoiy demografik guruhdir. Yoshlarning alohida ijtimoiy ruhiy qiyofasi jamiyatning umumiy holati, ijtimoiy moslashuv qonuniyatlar, ta‘lim-tarbiya qonuniyatlari bilan belgilangan.

Yoshlarning katta hayotga qadam qo‘yish bilan bog‘liq asosiy ijtimoiy ijtimoiy muammolari, ta‘lim olish, oila qurish, mehnat faoliyatini boshlash, kasbiy mahorat va ilgariylash, qat‘iy siyosiy norma²³.

Yoshlarning ta‘lim-tarbiyasi haqida gapirganda, ularning kitobga mehri pasayib, bolalarimiz ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotganini alohida

²³ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси – Т.: “Маънавият”, 2022, 920-б.

takidlamogchiman. Meni to‘g‘ri tushunishlaringizni istayman, men internetga qarshi emasman. Bugungi kunda axborot tarqatish, axborot almashishning tezligi va mukammalligi bo‘yicha internetning o‘rnini bosadigan boshqa vosita yo‘qligini albatta yaxshi bilaman.

Ammo farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar mobaynida sinalgan, yuksak ma‘naviyat manbai bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki biz uchun yot bo‘lgan g‘oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirayotgan zararli axborotlar asosida shakllanishiga men butunlay qarshiman.

Bolalar bog‘chalar, maktablar, kollejlari va litseylar, oila o‘quv yurtlarida o‘quv jarayoni, ta‘lim va tarbiya usullarini qayta ko‘rib chiqishimiz zarur. eng muhimi, farzandlarimizda yoshlik chog‘idan boshlab kitobga mehr qo‘yish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri javob topish ko‘nikmasini shakllantirishimiz, buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor

Bizning xavas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Xavas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Xavas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xoxlasa, xavas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo‘ladi²⁴, deb prezidentimiz o‘z fikrlarini bayon etadi.

Axborot urushi davrida nafaqat har bir yosh avlodni himoya qilish balki butun xalqni ham himoya qilish lozimligini yuqorida aytib o‘tdik. Chunki bir insonning halokatga uchrashi, bir mamlakat manfaati uchun ham yomon.

Davlatimiz tashqi siyosatining ma‘no-mazmuni va maqsadi bitta – u ham bo‘lsa O‘zbekiston manfaatidir. Bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo‘lib qolmoqda. XXI asr vabosi bo‘lgan ushbu illatga qarshi jahon hamjamiyatining murosasiz kurashini O‘zbekiston to‘la qo‘llab-quvvatlaydi.

Hozirgi dunyoda madaniy aloqalar kengayib borayotganligi sababli, turli madaniyatlar o‘zaro hamkorligining samaradorligi muammosi dolzarb vazifa qilib qo‘yilmoqda. O‘zaro madaniy aloqa va bu sohada hamjihatlik g‘oyat murakkab jarayon bo‘lib, xilma-xil mantiqiy va ma‘naviy tarkibga egadir. Bu holatni inkor etish ko‘pincha murakkab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Alohida har bir odamni va umuman jamiyatni o‘zida boshqa shaxs va jamiyatlarni Davlatimiz tashqi siyosatining ma‘no-mazmuni va maqsadi bitta – u ham bo‘lsa O‘zbekiston manfaatidir, - degan masala ham g‘oyat muhim ahamiyatga egadir. Globallashuv jarayonida insoniyatning o‘zaro bog‘liqligi kuchayib, uning bundan buyongi taqdiri

²⁴ Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, 2017. - B. 469, 482-483.

uchun ma’suliyat anglab olinayotganligi asa tolerantlik madaniyatning shakllanishiga shak-shubxasiz imkon bermoqda. Iqtisodiy o‘zoro bog‘liqlik, axborotning globallashuvi va xavfsizlik nuqtai nazaridan o‘zoro bog‘liqlig hozirgi dunyo globallashuvining o‘ziga hos xususiyatlaridir.

Yoshlarni har xil ijtimoiy tarmoqlar orqali qonli mafkuralar girdobiga tortilishini oldini olish nafaqat bizning hukumatimiz balki butun dunyo rahbariyati harakat qilib kelayotgan murakkab vazifadir. Xalqaro tashkilotlarning minbarlarida ham bu masalaga echimlar topishga harakat qilinmoqda.

O‘zbekiston-BMT aloqalaridagi muhim jihatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi hisoblanadi. Nutqida ko‘p masalalarga jumladan, O‘zbekistondagi islohatlarning maqsad va vazifalari, O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, Suv resurslari, Afg‘on muammosi bilan bir qatorda terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq tahdidlarga qarshi kurashishda faqat ularning oqibatlarini bilan emas, balki sabablari bilan ham kurashish ekanligini aytib o‘tadi.

Intellekt (lot. intellektus-bilish, tushunish, idrok qilish) - insonning aqliy qobiliyati, hayotni, atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish, fikrlash, o‘qish-o‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati, turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqealarni oldindan ko‘ra bilish layoqati²⁶.

Qadriyatlar deganda inson va insoniyat uchun ijobiy ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar tushuniladi. Insoniyat tarixi unga xizmat qiladigan, o‘zi yaratgan, suyanadigan va qo‘llab-quvvatlaydigan qadriyatlar dunyosining kengayishi, boyish va takomillashish tarixidir. Insoniyat o‘zining kundalik mehnati bilan yaratayotgan sun’iy narsalar dunyosida yashaydi. Biz yaratayotgan ushbu moddiy va ma’naviy boyliklar olamining gultoji, sarasi qadriyatlardir. Qadriyat va qadriyat mezonlari kishilarga, ularning xulq- atvorini tartibga solish va to‘g‘ri yo‘naltirishga xizmat qiladi. Bunday o‘ziga xos boshqarishning samaradorligi kishilarimizning qadriyatlar olamini bilishiga bog‘liq²⁷.

Intellectual qadriyatlar deganda inson aql-zakovati yordamida vujudga keltirilgan g‘oya, bilim, axborot tushuniladi. Ma’naviy qadriyatlarning tarkibiga kiradi. Ilm-fan ham intellektual qadriyatlar jumlasidandir.

Jamiyatda o‘z ildizi va asosiga ega bo‘lgan institutlar, qadriyatlar, urf-odatlar, aholi mentaliteti, mintaqaviy, milliy, diniy, madaniy-ma’naviy xususiyatlar xalqning

²⁶ Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ- 2006. - Б.16.

²⁷ Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси. - Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ- 2006. - Б.16.

modernizatsiyalashgan qadriyatlarni qay darajada qabul qila olishi, siyosiy tizimning yangilanishi kabilarning e’tiborga olinishi muhim ahamiyatga egadir.

“Modernizatsiyalash ijtimoiy taraqqiyot bo‘lib, inventiv - (lotincha “ochish”) va innativ (lotincha “yangilik kiritish”), ya’ni innovatsiyani va yangi texnologiyani joriy qilish jarayonlaridan iborat. Shuningdek, integrativ jarayon ham mavjud bo‘lib, u ko‘proq milliy xarakter, madaniy an’analar, xalq mentalitetini hisobga oladi, o‘zgaradi va o‘z imkoniyati, tayyorgarlik darajasi asosida amalga oshiradi”²⁸, - deyish maqsadga muvofiqdir.

F.Abdurahmonov “Modernizatsiya - traditsion yoki an’anaviy jamiyatdan, ya’ni agrar tipidagi ishlab chiqarish munosabatlaridan, patriarxal madaniy hayotdan yirik mashinalashgan industrial jamiyatga hamda ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarni oqilona boshqarishda faqat qonunga tayanadigan tizimga o‘tishdir. Modernizatsiya traditsion yopiq jamiyatga qarama - qarshi bo‘lib, uning asosini zamonaviy ochiq jamiyat tashkil etadi hamda u industrializatsiya, urbanizatsiya, sifatli ta’lim tizimi, samarali siyosiy hokimiyat, tashqi iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etish kabi elementlarni o‘z ichiga oladi”, - deya sharhlaydi. “Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati”da modernizatsiyaga shunday ta’rif beriladi: “Modernizatsiya (ingl. Modernizatsion - o‘zgarish, yangilanish, zamonaviylashtirish) - 1.Industrlashtirish, sanoatlashtirish davrida agrar, tarixiy va zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining yangi bosqichga ko‘tarilishini ifoda etuvchi ijtimoiy jarayon. U jamiyat hayotining barcha jabhalari: iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy sohaning modernizatsiya qilinishini taqozo etadi”²⁹.

Biz ham bu fikrlarga qo‘shilgan holda demoqchimizki, modernizatsiya yangilash, predmet va hodisalarni takomillashtirish, ularni zamonaviy talablar va me’yorlarga hamda zamonaviy sifat va miqdor ko‘rsatkichlariga muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Modernizatsiya va tafakkur erkinligi aloqadorligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, tafakkur erkinligi jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida insonparvarlik g‘oyalarini shakllantiradi; ikkinchidan, jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida tafakkur erkinligi yoshlarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishda yordam beradi; uchinchidan, tafakkur erkinligi jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida tafakkur tobeligidan xolos etib mustaqil fikrlashni shakllantiradi; to‘rtinchidan, tafakkur erkinligi yoshlarda turli tajovuzkor mafkuraviy axborot xurujlariga qarshi

²⁸ Омонов Б. “Янгиланиш-табиий жараён” // Жамият ва бошқарув., 2007 йил, 2-сон. - 40-б.

²⁹ Ф.Абдурахмонов. Модернизация и развитие в условиях либерализации национальной экономики. Сборник научных трудов. - Москва, 2008, - с. 77- 78.

g‘oyaviy immunitetni shakllantiradi; beshinchidan, tafakkur erkinligi ajdodlarimizdan, avlodlarga qadriyat sifatida o‘tib kelayotgan boy madaniy-ma‘naviy merosimizga hurmat va ularni avaylab-asrash tuyg‘usini shakllantiradi; oltinchidan, jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida tafakkur erkinligi bugungi innovatsion g‘oyalar keng shakllanib borayotgan bir davrda yoshlar kelajakka ishonchi ortib borishida muhim ahamiyatga egadir³⁰.

Yangi mafkuraning asl ma‘nosi eski aqidalardan xoli bo‘lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iboratdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning yoshlarni begona mafkuraviy tazyiqdan himoya qilish borasidagi tashabbuslari ham jamiyat a‘zolari oldiga qo‘yilgan ulkan dasturiy topshiriqlardan biri hisoblanadi.

Tafakkur erkinligining mohiyatida insonparvarlik, jamiyat va alohida shaxs manfaatlari o‘z ifodasini topar ekan, bugungi kelajagi buyuk bo‘lgan davlatimizning yanada yuksalishida yoshlarimizda ushbu tuyg‘ularni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Eng asosiysi, davlatimiz mustaqilligining ma‘naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an‘ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, yosh avlod qalbiga ona yurtga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish hamda g‘oyaviy va axborot xurujlarining maqsadlarini fosh etish, yoshlarni hushyorlik va ogohlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma‘naviy- ma‘rifiy ishlarni yanada kuchaytirish bugungi kunning eng muhim dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ozod yurtning hur fikrli farzandlari mustaqil va erkin tafakkur qilish huquqiga egadirlar. “Inson tafakkuriga nafaqat uning bilimlari, aqlining tahliliy va umumlashtirish salohiyati, mustaqil xulosa qilish mas‘uliyatidan cho‘chimasligi, sog‘lom skepsis, hissiy-psixologik xususiyatlari, shuningdek, e‘tiqodi muayyan diniy-falsafiy, estetik, axloqiy qadriyatlar tizimiga munosabati ham ta’sir ko‘rsatadi”³¹. Bu esa, odamning tabiatning ishtrokchisi, uning tarkibiy qismi in’ikosidir. “O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti eng oliy maqsadlarni ko‘zlaydi, biz ilm-fan va texnikani, yuksak texnologiyalarni, ma‘naviy madaniyatni rivojlantirib, haqiqiy bozor munosabatlarini qaror topdirmoqdamiz, jahon hamjamiyatiga integratsiya bo‘lmoqdamiz. Inson kamoloti va erkinligi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni, shu jumladan, intellektual imkoniyatlarni yaratmoqdamiz. Oldimizga qo‘ygan maqsadlarga esa faqat aql va chuqur mantiqqa tayangan tafakkur

³⁰ Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. - Тошкент: «Академия» 2007, 222-223-бб.

³¹ Абдурахим Эркаев. Тафаккур эркинлиги. - Тошкент: “Маънавият” 2007, 49-б.

yordamidagina erishish mumkin”³². Bunday vaziyat esa yoshlarning zimmasiga ulkan ijtimoiy vazifa yuklaydi.

O‘zbekiston - ilm-fan va madaniyat qadimdan taraqqiy etgan mamlakatlardan biri. O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududida ayniqsa, astronomiya, matematika, kimyo, tibbiyot, me‘morlik, ma‘dashunoslik, falsafa, tilshunoslik, musiqa, adabiyotshunoslik rivojlangan. O‘zbekiston olimlari o‘z ilmiy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo‘shdilar.

Misol uchun “Majlisi ulamo”, yoki “Dor ul-hikma” deb nomlangan ilm dargohi hozirgi vaqtda Xorazm Ma‘mun akademiyasi rasman qisqa muddat bor- yo‘g‘i 17 yil faoliyat ko‘rsatgan. Lekin bu ilmiy dargoh asrlar osha etib kelgan katta ilmiy an‘analar qudratini shu qadar oqilona ishga soldiki, natijada jahon ilmining keyingi ming yilligi taraqqiyotiga ulkan zamin yaratildi. Ibn Iroq, Beruniy, Masihiy, Ibn Sino, Hammor va boshqa ko‘plab ulug‘ allomalarning ishlarini keyingi avlodlar davom ettirdilar³³.

XULOSA

Axborot ham intellektual qadriyatlar sirasiga kiradi. Bugungi kunda yoshlar asosan axborot manbai sifatida internetga murojaat etishadi. Yurtimizda Internet tizimidan foydalanuvchilar safi jadal sur‘atlar bilan kengayib bormoqda. Bugungi kunda ularning soni 20 milliondan ortib ketgani buni tasdiqlab turibdi. Internetdagi faoliyatning ijobiy tomonlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

a) dunyoqarashning kengayishi;

b) ob‘ektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati (bunda yosh yigit yoki qizning axborotga “to‘q” bo‘lishi va ularni saralay olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Agar unda axborotga bo‘lgan “did” bo‘lmasa, u axborot oqimida “cho‘kib” ketishi mumkin, ya’ni ta’siriga berilib ketishi mumkin);

v) masofaviy o‘qishlarda ishtirok etish imkoniyati;

g) axborotlarni tanlash imkoniyati borligi.

Shu bilan birga internetning ulkan imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditoriyaning cheklanmaganligi yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi.

³² Абдурахим Эркаев. Тафаккур эркинлиги. - Тошкент: “Маънавият” 2007, 91-б.

³³ Исҳоқов М. Цивилизатсион жараёнлар ва Хоразм Маъмун акадкмияси. - Тошкент: Фуқароик жамияти, 2006. 7-сон. - Б.21.